

Foydaniilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risidagi PF-5992. 2020 yil. 12-may. 1 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA Farmoni 15 b.
3. Prezident Shavkat Mirziyoevning 2020 yildagi parlamentga murojaati 29.12.2020
4. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/modernizatsiya-uz/Modernizatsiya>
5. Ermatov M.K. Banklarda restrukturizatsiya jarayonlar/Ilmiy muzokora. “Iqtisod-moliya”. 2007 y. 7–b.

**ISLOMDA INVESTITSIYA VA AKSIYALAR SAVDOSIGA
DOIR MUHIM MASALALAR**

*PhD, dots. **Batirova N.***

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti

G‘ulomov Anvarjon Ahror o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasitalabasi

Bugungi iqtisodiy globallashuv jarayonida investitsion faoliyat har bir davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega element hisoblanadi. Boisi, mazkur faoliyat mamlakatda sanoat ishlab chiqarish darajasini kengaytirishga va rivojlantirishga, iqtisodiyotning barqaror hamda progressiv o‘shishiga xizmat qiladi. Shu bois investitsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi har bir davlat o‘zining bu boradagi aniq maqsadlarini ifodalovchi yo‘l xaritasini ishlab chiqadi. Xususan, Islomiy moliya tarmog‘i bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o‘zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, islomiy moliya muassasalari yalpi aktivlari miqdori 2026-yilga borib 5,9 trillion AQSH dollarini tashkil etishi kutilmoqda. Shundan yetti foizdan ziyodi, ya‘ni 416 milliard dollari islomiy fondlarga to‘g‘ri keladi. Islomiy fondlar tez rivojlanayotgan soha bo‘lib, hozirda o‘shish ko‘rsatkichi 34% ni ko‘rsatmoqda¹⁹⁶.

Barchamizga ma‘lumki, islomiy fondlar, asosan, investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanadi.

Mamlakatimizda ham investitsiyalarni turli sohalarga, masalan, moliya, ta‘lim, tibbiyot, biznes, sanoat kabi sohalarga jalb etish, ularning oqimini kengaytirish, investitsion faoliyatni rag‘batlantirish bo‘yicha turli reja va dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Investitsiya davlat budjetiga ham katta miqdorda tushum olib kirishi mumkin. Shuni bilgan holda, davlat tadbirkorlarga ham investitsiya ajratmoqda.

Endi ish boshlamoqchi bo‘lgan, yetarlicha mablag‘ga ega bo‘lmagan ish yuritishga qiziqishi, qobiliyati va layoqati bo‘lgan tadbirkorlar uchun kapitalga ega bo‘lish va ishni boshlashning eng samarali va ishonchli usuli bu investitsiyadir. Investitsiyada tadbirkor o‘z loyihasini investorlarga taqdim etadi va kimga ma‘qul kelsa, u o‘z sarmoyasini kiritadi va biznesga sherik bo‘ladi.

¹⁹⁶ Islamic Finance Development Report 2022(50th page).

Investitsiya tadbirkor uchun ham, investor uchun ham foydalidir. Agar tadbirkor investitsiya emas kimdandir qarz yoki bankdan kredit olsa, bunda qarz miqdori yildan yilga oshib boradi, tadbirkor foyda qilgan taqdirda ham ustama foizni qoplashi qiyin bo‘ladi. Bu holat esa islom iqtisodiyotida ribodir. Tadbirkor zarar qilgan taqdirda ham qarz va ustamani qoplashga majbur bo‘ladi. Investitsiyada esa bunday emas. Investitsiyaning investorlar uchun foydali jihati shundaki, ishlashga vaqti yo‘q yoki layoqati yo‘q bo‘lgan puldorlar uchun ham juda qulay.

Islom investitsion fondlarida investorlar o‘zlarida mavjud bo‘lgan bo‘sh pul mablag‘larini joylashtirib, fond faoliyati orqali halol foyda topishni maqsad qiladilar. Investitsion fondga o‘z sarmoyasi bilan a‘zo bo‘lgan investorlar ana shu a‘zolikni ifodalovchi hujjatga ega bo‘ladilar, ushbu sertifikatda investorning foydadagi ulushi ham aks ettirilgan bo‘ladi. Ushbu hujjatni a‘zolik sertifikati yoki ulush deb atash mumkin. Ularning shariatga muvofiq kelishi uchun quyidagi shartlar mavjud bo‘lishi kerak:

Birinchi – sertifikatda qat‘iy summadagi foyda miqdori belgilanishi mumkin emas, aksincha, foyda miqdori fond tomonidan topilgan haqiqiy foydaga nisbatan ma‘lum bir ulushda belgilanishi zarur. Demak, nafaqat foyda olinishi, balki sarmoyaning o‘zi qaytishi ham kafolatlanmagan bo‘lishi zarur. Investorlar ushbu fondga sarmoya kiritayotganlarida sarmoyadan keladigan foyda fondning haqiqiy foydasiga bog‘lik ekanini, agar fond zarar ko‘rsa o‘zlari ham zarar ko‘rishlarini tu- shunishlari lozim. Agar fond katta foyda ko‘rsa, investorlarning ham oladigan foydalari katta bo‘ladi; zarar ko‘rsa, investorlar ham zararga sherik bo‘ladilar. Ammo zarar fondning o‘z ishiga mas‘uliyatsizligi tufayli yuz bergan bo‘lsa, u holda fond investorlarning zararini qoplab berishi kerak bo‘ladi.

Ikkinchi – fondga yig‘ilgan mablag‘lar shariat ruxsat bergan faoliyatgagina yo‘naltirilishi lozim. Ya‘ni nafaqat biznesning o‘zi, balki u amalga oshiradigan loyihalar, oldi-berdilar ham shariatga zid kelmasligi kerak.

Hozirda fond bozorlarida investitsiya qimmatli qog‘ozlar shaklida ommalashib bormoqda. Qimmatli qog‘ozlardan aksiya va obligatsiyalar mashhur bo‘lib, ulardan ma‘lum bir turlarigina islom iqtisodiyoti tamoyillariga javob bera oladi:

1. Aksiyalarning ikki xil turi mavjud: oddiy va imtiyozli. Oddiy aksiya islom moliyasi tamoyillariga ko‘ra qo‘shimcha me‘zonlar bilan ruxsat etiladi. Oddiy aksiyada investor kompaniyadagi real mulkning qismini sotib oladi va aksiya so‘ndirilayotganda ham investorga shu mulkning shu qismi miqdorida mablag‘ qaytariladi. Investor foydadan dividend olish va yig‘ilishlarda ovoz berish huquqlariga ega bo‘ladi.

2. Sukuk (islomiy qimmatli qog‘oz) – aktivning yoki tadbirkorlik faoliyatining foyda va zararida ko‘rsatilgan ulushda ishtirok etishini bildiruvchi qimmatli qog‘oz. Ayrim manbalarda islomiy obligatsiya nomi ostida keladi. (Obligatsiya qarzga asoslangan qimmatli qog‘oz bo‘lib, ribo elementlari uchragani uchun joiz emas). Sukuk islom iqtisodiyotiga muvofiq bo‘lishi uchun bir qancha shartlar

bajarilishi lozim: huquq va majburiyatlar aniq va shaffof bo‘lishi; dividendning ulushda bo‘lishi; real aktiv bilan qoplangan bo‘lishi; korxonaning moddiy aktivi, uzufrukt huquqi yoki xizmati uchun sherikchilikni ifodalashi; investorga to‘lov so‘f foydadan chiqarilishi; so‘ndirilish qiymati sukuk asosidagi aktivning bozor qiymatidan kelib chiqib belgilanishi.

Investorlar ko‘p hollarda aksiyani xarid qilib, uni qimmatroqqa sotish evaziga foyda olinadi. Bundan tashqari, aksiyalardan dividend ko‘rinishida ham daromad olinadi. Asosiy faoliyati noshar‘iy bo‘lgan kompaniyaning aksiyalarini sotib olish, saqlab turish yoki sotish mumkin emas, chunki bunda investor to‘g‘ridan-to‘g‘ri noshar‘iy ishlar bilan shug‘ullanuvchi kompaniyaga sarmoya kiritgan, unga egalik qilgan bo‘lib qoladi.

Aksiya sotib olish, sotish va undan dividend olish islom iqtisodiyoti tamoyillariga muvofiq bo‘lishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

1. Kompaniyaning asosiy operatsion faoliyati shariatga zid kelmasligi shart. Shunday ekan, foizli kredit va moliya xizmatlarini taqdim qiladigan moliyaviy muassasalar (an‘anaviy banklar, an‘anaviy sug‘urta kompaniyalari) va cho‘chqa go‘shiti, halol bo‘lmagan go‘shit mahsulotlari, mast qiluvchi ichimliklar ishlab chiqaradigan va sotadigan, qimor xizmatlari, tungi klublarning aksiyalarini sotib olish va sotish aslo mumkin emas.

2. Agar kompaniyaning asosiy faoliyati avtomobilsozlik, sanoat kabi halol biznes bo‘lsa-yu, ammo bo‘sh turgan mablag‘larini foizli depozitda saqlasa yoki foizli kredit oladigan bo‘lsa, aksiya egasi Islom shariati tomonidan taqiqlangan bunday amaliyotlarga qarshiligini ochiq-oydin bildirishi, aksiyadorlar yig‘ilishida qatnashgan taqdirda bunday oldi-berdilarga qarshi ovoz berishi lozim.

3. Agar kompaniya daromadlarining bir qismi foizli depozitlardan kelgan bo‘lsa, aksiyador o‘z dividendidan unga proporsional ulushni chiqarib tashlashi va ehson qilib yuborishi kerak. Bu ulushni o‘zi ishlatmasin, daromadlari tarkibiga kiritmasin. Masalan, kompaniya umumiy daromadlarining 5 foizini depozitdan olingan foizli foyda tashkil qilsa, u holda aksiya egasi o‘zining dividendidan 5 foizini xayriya uchun sarflashi zarur bo‘ladi.

4. Kompaniya nolikvid aktivga ega bo‘lsagina, kompaniyaning aksiyalari bilan savdo qilish mumkin. Agar kompaniyaning barcha aktivlari likvid ko‘rinishda bo‘lsa, ya‘ni puldan boshqa aktivi bo‘lmasa, uning aksiyalarini nominal qiymatdan o‘zgacha narxda sotish yoki sotib olish mumkin emas. Chunki bunday holatda 100 so‘mlik aksiya 100 so‘m pulnigina ifodalaydi - pul ayirboshlaganda esa har qanday ortiqchalik ribo bo‘ladi.

Bugungi kunda dunyoda fond bozorlari, qimmatli qog‘ozlar bozorlari, foreks, tredinglar borgan sari rivojlanib kengayib bormoqda. Lekin bizning yurtimizda bu soha hali anchagina sust. Chunki xalqimiz hali buni tushunadigan darajada emas. Tushunadiganlari ham yetarlicha bilimga ega emas. Kompaniyalar aksiya chiqarmoqda, lekin bundan xalqning xabari yo‘q. Aksiyalar bozorini rivojlantirish uchun xalqning salohiyatini oshirish, vebinar-trening darslarni ko‘paytirish, aksiyalar chiqqanligi haqida xabar va reklamalarni rivojlantirish, aksiyalarning

islom iqtisodiyoti tamoyillariga muvofiq yoki muvofiq emasligini aniqlab beradigan Zoya¹⁹⁷, Musaffo¹⁹⁸, Sahih Invest¹⁹⁹ kabi dasturlar, aksiyalar savdosi uchun Jett.uz²⁰⁰ kabi platforma yoki dasturlar, investitsiya uchun Iman Invest²⁰¹ kabi dasturlarni takomillashtirish va ularning sonini ko‘paytirish lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, qo‘lda bo‘sh pul mablag‘lari paydo bo‘lganda depozitdan yoki pulga muhtoj bo‘lib qolganda kreditdan foydalanishdan ko‘ra islom iqtisodiyotiga muvofiq ish tutilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Biror bir yaxshi biznes boshlash, agar biznesga loyoqat bo‘lmasa, yaxshi loyihaga investitsiya kiritish yoki yuqorida berib o‘tilgan shartlarni qanoatlantiradigan aksiya sotib olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Муфтий Муҳаммад Тақий Усмоний [Матн]: асар/Тошкент: “Azon kitoblari”, 2023. – 288 б.*
2. *М 70 Moliya bozori: darslik/S.Elmirzayev va boshqalar; - T.:“Iqtisodiyot-moliya”,2019.- 324 b.*
3. *Исломиёй молия асослари [Матн] / Е.А. Байдаулет. – Тошкент: «O‘zbekiston» НМИУ, 2019. – 432 б.*
4. <https://islommoliyasi.uz/>
5. *Islamic Finance Development Report 2022*

NUDGING FOR BETTER FINANCIAL DECISION MAKING: APPLYING BEHAVIORAL INSIGHTS TO IMPROVE BUDGETING AND TAX MANAGEMENT IN UZBEKISTAN

Quvatova Oliya Sheraliyevna

Tashkent State University of Economics, Teacher

Husenov Muhridin

Tashkent State University of Economics

Student of Finance faculty

Financial decision making plays an important role in people’s lives, which shapes their economic well-being and contributes to overall stability and sustainable growth of a country. However, despite the availability of wide range of resources and information, most of the people often struggle to make better financial choices which leads them to rely on their emotions and behaviors. In recent years, in the field of finance, behavioral economics has emerged as a valuable framework understanding these challenges and help to overcome them.

Uzbekistan is a country located in Central Asia with a population of over 36 million, has been undergoing significant economic reforms since gaining

¹⁹⁷ https://play.google.com/store/apps/details?id=com.investroo.zoya&hl=en_US

¹⁹⁸ https://play.google.com/store/apps/details?id=com.axonlogic.stocktrade&hl=en_US

¹⁹⁹ <https://play.google.com/store/apps/details?id=com.sahih.invest&hl=ru>

²⁰⁰ https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.owl.multicard&hl=en_US

²⁰¹ https://play.google.com/store/apps/details?id=udevs.iman_invest&hl=ru&gl=US